



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
DAVLAT STATISTIKA QO‘MITASI**




# **O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI AHOLISINING UMUMIY DAROMADLARI**

**2022- YILNING YANVAR-MART  
OYLARI BO‘YICHA  
DASTLABKI MA‘LUMOTLAR**

### **Aholining umumiy daromadlari**

*(2022- yilning yanvar-mart oylari bo'yicha dastlabki ma'lumotlar)*

Aholi umumiy daromadlarini hisoblash – Milliy hisoblar tizimining xalqaro statistika standartlariga, Xalqaro mehnat tashkilotining tavsiyalariga, O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlariga asoslangan Davlat statistika qo'mitasi tomonidan ishlab chiqilgan metodik qo'llanma asosida amalga oshiriladi.



Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha, 2022- yilning yanvar-mart holatiga ko'ra, aholining umumiy daromadlari 114,2 trln. so'mni tashkil etdi.

Aholi daromadlari bo'yicha real o'sish sur'atlarini hisoblashda narx omillari ta'sirini chiqarib tashlash maqsadida, inflyatsiya ko'rsatkichlarining asosiy turlaridan biri – iste'mol narxlari indeksidan (INI) foydalaniladi. Iste'mol narxlarining o'zgarishi sababli o'tgan yilning mos davriga nisbatan aholi umumiy daromadlarining real o'sish sur'ati 105,4 % ni tashkil etdi.

Aholi umumiy daromadlarini hisoblashda Davlat statistika hisoboti ma'lumotlaridan, shuningdek, muntazam ravishda statistika organlari tomonidan o'tkazib boriladigan yakka tartibdagi tadbirkorlar va dehqon xo'jaliklarining iqtisodiy faoliyati bo'yicha hamda uy xo'jaliklari tanlanma kuzatuvi ma'lumotlaridan, bundan tashqari Moliya vazirligi, Budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi, Markaziy Bank, Xalq Banki, Davlat soliq qo'mitasi tomonidan aholiga hisoblangan daromadlar, ijtimoiy to'lovlar va soliq to'lovlari to'g'risidagi umumlashgan ma'lumotlardan foydalaniladi.



*Aholi jon boshiga umumiy daromadlari*

**3,2 mln. so'm**



*Aholi jon boshiga umumiy daromadlarining nominal o'sish sur'ati*

**113,6 %**




*Aholi jon boshiga umumiy daromadlarining real o'sish sur'ati*

**103,3 %**


2022- yilning yanvar-mart oylarida (uch oy davomida), aholi jon boshiga umumiy daromadlar hajmida Toshkent shahrida (7715,0 ming so'm) hamda Navoiy (5768,5 ming so'm), Toshkent (3772,3 ming so'm), Buxoro (3472,9 ming so'm) viloyatlarida o'rtacha respublika darajasidan yuqori ko'rsatkichlar qayd etilganligi kuzatildi.

## 2022- yilning yanvar-mart oylarida (uch oy davomida), O'zbekiston Respublikasi hududlari bo'yicha aholi jon boshiga umumiy daromadlar hajmi, ming so'm




2022- yilning yanvar-mart oylarida (uch oy davomida), aholi jon boshiga umumiy daromadlar hajmining eng quyi ko'rsatkichlari Namangan (2330,6 ming s'om), Surxondaryo (2334,9 ming s'om) viloyatlarida va Qoraqalpog'iston Respublikasida (2434,6 ming s'om) hamda Qashqadaryo (2452,6 ming so'm) viloyatlarida qayd etildi.

### O'zbekiston Respublikasida aholi jon boshiga umumiy daromadlarning real o'sish sur'atlari



**Ma'lumot uchun:** 2022- yilning yanvar-mart holatiga ko'ra aholi jon boshiga umumiy daromadlarning real o'sishi 103,3 % ni tashkil etdi, 2021- yilning yanvar-mart holatiga esa bu ko'rsatkich 105,6 % ni tashkil etgan edi.

### 2022- yilning yanvar-mart holatiga ko'ra, O'zbekiston Respublikasi hududlari bo'yicha aholi jon boshiga umumiy daromadlarning real o'sish sur'atlari



Aholi jon boshiga umumiy daromadlarning eng yuqori real o'sishi Navoiy (10,2 %), Farg'ona (9,4 %) va Toshkent (6,5 %) viloyatlarida kuzatildi. Aksincha Qoraqalpog'iston Respublikasida (-0,3 %), Surxondaryo (-0,4 %), Buxoro (-0,6 %) viloyatlarida aholi jon boshiga umumiy daromadlarning real o'sish sur'atlarinig pasayishi qayd etildi.

2022- yilning yanvar-mart oylarida aholining  
umumiy daromadlari tarkibi


	2021- y.	2022- y.
<b>Umumiy daromadlar – jami</b>	<b>100,0 %</b>	<b>100,0 %</b>
Mehnat faoliyatidan olingan daromadlar	62,0 %	62,5 %
Shaxsiy iste‘mol uchun o‘zida ishlab chiqarilgan xizmatlardan olingan daromadlar	8,4 %	7,8 %
Mol-mulkdan olingan daromadlar	2,7 %	3,1 %
Transfertlardan olingan daromadlar	26,9 %	26,6 %

Aholining umumiy daromadlari hajmini sezilarli darajada o‘shishi asosan umumiy daromadlar tarkibida 62,5 % ulushga ega bo‘lgan mehnat faoliyatidan olingan daromadlar (yollanma ishchilarning daromadlari va mustaqil ravishda band bo‘lishdan olingan daromadlar) va 26,6 % ni tashkil etuvchi transfertlardan olingan daromadlarning sezilarli o‘zgarishi hisobiga yuzaga kelgan.



**Ma‘lumot uchun:** bu yerda va keyingi o‘rinlarda shaxsiy iste‘mol uchun o‘zida ishlab chiqarilgan xizmatlardan olingan daromadlar bo‘yicha ma‘lumotlar qayta hisoblashlarni inobatga olgan holda keltirilgan. Mazkur qayta hisoblashlar “MHT – 2008” xalqaro standarti asosida o‘z uyida yashash bo‘yicha xizmatlar (shartli uy-joy rentasi)ni baholashning yangi metodologiyasini joriy etilishi bilan bog‘liqdir.

## 2022- yilning yanvar-mart oylarida O'zbekiston Respublikasi hududlari bo'yicha aholi umumiy daromadlari tarkibi (hududiy aholi umumiy daromadlariga nisbatan)




■ mehnat faoliyatidan olingan daromadlar

■ shaxsiy iste'mol uchun o'zida ishlab chiqarilgan xizmatlardan olingan daromadlar va mol-mulkdan olingan daromadlar

■ transfertlardan olingan daromadlar


Hududlar bo'yicha aholi umumiy daromadlari tarkibida mehnat faoliyatidan olingan daromadlarning (yollanib ishlovchilarning ish haqi va mustaqil ravishda band bo'lishdan olingan daromadlar) eng yuqori ulushi Toshkent (73,6 %) viloyatida kuzatildi. Aksincha, Samarqand viloyatida, Qoraqalpog'iston Respublikasi, Surxondaryo, Farg'ona, Namangan viloyatlarida hamda Toshkent shahar va Qashqadaryo, Xorazm, Andijon viloyatlarida o'rtacha respublika darajasidan past ko'rsatkichni tashkil etdi.

2022- yilning yanvar-mart oylarida  
mehnat faoliyatidan olingan daromadlar




Aholining umumiy daromadlari tarkibida mehnat faoliyatidan olingan daromadlar (yollanma ishchilarning va mustaqil ravishda band bo'lishdan olingan daromadlar) sezilarli ulushni tashkil etdi.

Mehnat faoliyatidan olingan daromadlarning umumiy daromadlar tarkibidagi ulushi



2022- yilning yanvar-mart oylari ma'lumotlariga ko'ra, mehnat faoliyatidan olingan daromadlarning umumiy daromadlar tarkibidagi ulushi 62,5 % ni tashkil etdi.

Mehnat faoliyatidan olingan daromadlarning nominal o'sish sur'ati



Mehnat faoliyatidan olingan daromadlarning nominal o'sish sur'ati 2021- yilning mos davriga nisbatan 116,8 % ni tashkil etdi hamda aholi umumiy daromadlari nominal hajmining 10,4 % ga o'sishini ta'minladi.




### Yollanma ishchilar daromadlarining o'sish sur'ati




Joriy davrda yollanma ishchilar daromadlarining o'sish sur'ati 120,0 % ni tashkil etib, aholi umumiy daromadlari nominal hajmining 6,3 % ga o'sishini ta'minladi.

### Aholining umumiy daromadlari tarkibida yollanma ishchilarning daromadlari ulushi



2022- yilning yanvar-mart oylarida aholining umumiy daromadlari tarkibida yollanma ishchilarning daromadlari 32,8 % ni tashkil qildi.

### 2022- yilning yanvar-mart holatiga ko'ra, hududlar bo'yicha yollanma ishchilar daromadlarining o'sish sur'ati (o'tgan yilning mos davriga nisbatan)



Yollanma ishchilar daromadlarining eng yuqori nominal o'sish sur'ati Navoiy (126,0 %), Toshkent (123,8 %), Qashqadaryo (121,8 %) viloyatlarida, Toshkent shahrida (121,1 %) va Samarqand (120,9 %), Farg'ona (120,0 %) viloyatlarida qayd etildi.

## Mustaqil ravishda band bo'lishdan olingan daromadlarining o'sish sur'ati




2021- yil  
yanvar-mart | **117,2 %**



2022- yil  
yanvar-mart | **113,5 %**

Joriy davrda mustaqil ravishda band bo'lishdan olingan daromadlarining o'sish sur'ati 113,5 % ni tashkil etib, aholi umumiy daromadlari nominal hajmining 4,1 % ga o'sishini ta'minladi.

## Aholining umumiy daromadlari tarkibida mustaqil ravishda band bo'lishdan olingan daromadlar ulushi




2022- yilning yanvar-mart oylarida aholining umumiy daromadlari tarkibida mustaqil ravishda band bo'lishdan olingan daromadlari 29,6 % ni tashkil qildi.

## 2022- yilning yanvar-mart oylarida hududlar bo'yicha umumiy daromadlar tarkibida, mustaqil ravishda band bo'lishdan olingan daromadlar ulushi




Hududlarda mustaqil ravishda band bo'lishdan olingan daromadlarning eng yuqori ulushi Jizzax (44,1 %), Buxoro (39,4 %) va Xorazm (37,0 %) viloyatlarida kuzatildi. Aksincha Toshkent shahrida, Qoraqalpog'iston Respublikasida va Navoiy viloyatida bu ko'rsatkich o'rtacha respublika darajasidan past bo'lgan.

## Mustaqil ravishda band bo'lishdan olingan daromadlar 1 % ga o'sganda aholining umumiy daromadlari hajmi o'sishiga ta'siri




Mustaqil ravishda band bo'lishdan olingan daromadlarning 1 % ga o'sishi umumiy daromadlar hajmining 0,30 % ga o'sishiga olib keladi.

## 2022- yilning yanvar-mart oylarida jami mustaqil ravishda band bo'lishdan olingan daromadlarda hududlarning ulushi




Mustaqil ravishda band bo'lishdan olingan daromadlarning asosiy ulushi Toshkent (11,7 %), Samarqand (11,3 %) va Farg'ona (9,2 %) viloyatlari hissasiga to'g'ri keldi. Kamroq ulushga ega bo'lgan hududlar Sirdaryo viloyati (2,4 %), Qoraqalpog'iston Respublikasi (3,3 %) hamda Navoiy (5,0 %) viloyati hisoblanadi.

### 2022- yilning yanvar-mart oylarida mol-mulkdan olingan daromadlar



### Mol-mulkdan olingan daromadlarning aholining umumiy daromadlari tarkibidagi ulushi



Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha, 2022- yilning yanvar-mart holatiga ko'ra, mol-mulkdan olingan daromadlar 3,6 trln. so'mni tashkil etdi.


Aholining umumiy daromadlari tarkibida mol-mulkdan olingan daromadlar ulushi 3,1 % ni tashkil etdi.

Joriy davrda mol-mulkdan olingan daromadlar aholi umumiy daromadlari hajmining 0,9 % ga o'sishini ta'minladi.


### 2022- yilning yanvar-mart oylarida mol-mulkdan olingan daromadlar tarkibida hududlarning ulushi

2022- yilning yanvar-mart oylarida mol-mulkdan olingan daromadlar hajmining uchdan ikki qismi ulushi Toshkent shahri hissasiga to'g'ri kelib, 52,3 % ni tashkil etdi. Navoiy (16,2 %), Toshkent (7,4 %) va Farg'ona (3,8 %) viloyatlari keyingi yuqori ulushga ega bo'lgan hududlar hisoblanadi.

## Mol-mulkdan olingan daromadlar tarkibida hududlarning ulushi




## Mol-mulkdan olingan daromadlarning o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati



2022- yilning yanvar-mart oylari dastlabki ma'lumotlariga ko'ra, o'tgan yilning mos davriga nisbatan mol-mulkdan olingan daromadlarning nominal o'sish sur'ati 134,9 % ni tashkil etdi. Hududlar bo'yicha eng yuqori o'sish sur'ati Qoraqalpog'iston Respublikasida (169,2 %) va Navoiy viloyatida (155,1 %) qayd etildi.

## 2022- yilning yanvar-mart oylarida transfertlardan olingan daromadlar


### Aholi umumiy daromadlari hajmida transfertlarning ulushi




Ushbu davrda aholining umumiy daromadlari hajmida transfertlarning ulushi 26,6 % ni tashkil etdi.

2022- yilning yanvar-mart oylari dastlabki ma'lumotlariga ko'ra, transfertlardan olingan daromadlarning 47,2 % ini ijtimoiy transfertlardan olingan daromadlar tashkil qilgan bo'lsa, 52,8 % ini boshqa joriy transfertlardan olingan daromadlar tashkil qildi.


### Transfertlardan olingan daromadlar tarkibi



## 2022- yilning yanvar-mart oylarida ijtimoiy transfertlar tarkibi



### O'sish sur'ati




Ijtimoiy transfertlar tarkibida pensiyalar eng ko'p ulushni (75,6 %) tashkil qilgan bo'lsa, nafaqalar 22,4 % ni, stipendiyalar 2,0 % ni tashkil etdi.

2021- yilning mos davri ma'lumotlari bilan taqqoslaganda pensiyalarning o'sish sur'ati 119,1 % ni, nafaqalarning o'sish sur'ati 137,5 % ni va stipendiyalarning o'sish sur'ati 149,7 % ni tashkil etdi.

2022- yilning yanvar-mart oylarida aholini ijtimoiy qo'llab-quvvatlash maqsadida, jami 3,2 trln. so'm miqdorida nafaqa va moddiy yordamlar ajratildi. Shundan 31,3 % i budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi hisobidan moliyalashtiriladigan davlat ijtimoiy sug'urtasi bo'yicha nafaqalar va 68,7 % i respublika va mahalliy byudjet mablag'lari hisobidan moliyalashtirilgan.

### 2022- yilning yanvar-mart oylarida hududlar bo'yicha ijtimoiy nafaqalarning shakllanish manbalari




## 2022- yilning yanvar-mart oylarida boshqa joriy transfertlar

2022- yilning yanvar-mart oylari bo'yicha boshqa joriy transfertlar tarkibiga kiruvchi respublika tashqarisidan kelib tushgan pul o'tkazmalari hajmining nominal o'sish sur'ati 108,0 % ni tashkil etdi. Aholining umumiy daromadlari tarkibidagi ulushi o'tgan yilning shu davriga nisbatan 1,0 % punktga kamaydi. Ushbu daromadlarning o'zgarishi aholi umumiy daromadlari nominal qiymatining 1,2 % ga o'sishini ta'minlab berdi.




2022- yilning yanvar-mart oylarida aholining umumiy daromadlari tarkibida respublika tashqarisidan kelib tushgan pul o'tkazmalarining eng yuqori ulushi Samarqand (22,6 %) va Farg'ona (19,1 %) viloyatlarida kuzatildi. Shuningdek, Andijon (19,0 %), Surxondaryo (18,5 %), Xorazm (17,4 %), Namangan (15,8 %), viloyatlarida, Qoraqalpog'iston Respublikasida (15,3 %), Qashqadaryo (14,7 %) va Buxoro (14,3 %) viloyatlarida respublika darajasidan yuqori ulushni tashkil etdi.

## 2022- yilning yanvar-mart oylarida hududlar bo'yicha aholining umumiy daromadlari tarkibida respublika tashqarisidan kelib tushgan pul o'tkazmalari hajmining ulushi






## 2022- yilning yanvar-mart oylarida aholining umumiy daromadlari tarkibida kichik tadbirkorlikdan olingan daromadlar



2022- yilning yanvar-mart oylari dastlabki ma'lumotlariga ko'ra, aholining umumiy daromadlari hajmida kichik tadbirkorlikdan olingan daromadlarning ulushi 52,5 % ni tashkil etdi.



## 2022- yilning yanvar-mart oylarida hududlar bo'yicha aholining umumiy daromadlari tarkibida kichik tadbirkorlikdan olingan daromadlarning ulushi



Kichik tadbirkorlikdan olingan daromadlarning hududiy aholi umumiy daromadlaridagi ulushi turlicha, eng yuqori ulush Jizzax viloyatida (61,4 %) kuzatildi. Eng kam ulush esa Qoraqalpog'iston Respublikasida (45,2 %), Toshkent shahrida (46,0 %), Navoiy (47,6 %) va Andijon (51,8 %) viloyatlarida qayd etildi.

## Statistik ko'rsatkichlarga izohlar

**Aholining umumiy daromadlari** doimiy yoki takrorlanuvchi xususiyatga ega bo'lgan, yillik yoki undan kam vaqt oralig'idagi davrda, uy xo'jaligi yoki uning alohida a'zolariga tushadigan pul va natura shaklidagi tushumlardan tashkil topadi.

**Aholi birlamchi daromadlari** ishlab chiqarishdan olingan daromadlar va mol-mulkdan olingan daromadlardan tashkil topadi.

**Ishlab chiqarishdan olingan daromadlarga** mehnat faoliyatidan olingan daromad va shaxsiy iste'mol uchun ishlab chiqarilgan shaxsiy xizmatlardan olingan daromadlar kiradi.

**Mehnat faoliyatidan olingan daromad** yollanma ishchilarning va mustaqil ravishda band bo'lgan aholining daromadidan tarkib topadi.

**Mustaqil ravishda band bo'lishdan olingan daromad** – mustaqil ravishda tashkillashtirilgan va uy xo'jaligi a'zolari jalb qilingan mehnat jarayoni natijasida olingan daromadlar.

**Shaxsiy iste'mol uchun o'zida ishlab chiqarilgan xizmatlardan olingan daromadlarga** bozor uchun mo'ljallanmagan va uy-joy egalari tomonidan foydalanilayotgan turar-joy xizmatlarining shartli ravishda hisoblangan qiymati kiradi.

**Mol-mulkdan olingan daromadlar** (mulkiy daromadlar) deganda mulkiy egalik qilish huquqi bo'lgan moliyaviy va nomoliyaviy aktivlarni boshqa shaxslarga foydalanish uchun berishdan uy xo'jaliklariga tushgan tushumlar tushuniladi.

**Transfertlar** – uy xo'jaliklariga boshqa uy xo'jaliklaridan, davlat tomonidan, yuridik shaxslardan, chet eldan kelib tushadigan hamda kelgusida qaytarilishi shart bo'lmagan tovarlar, xizmatlar va aktivlardir.